

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Yashil iqtisodiyotga o'tishda kichik biznesni shakllantirish va faoliyatini samaradorligini ta'minlashda rivojlangan mamlakatlar tajribasi

*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
Raximova Kizlarxon Ne'matjonqizi*

Dunyodagi asosiy ipak ishlab chiqaruvchi mamlakatlar; Xitoy, Hindiston, O'zbekiston, Braziliya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Tailand, Vetnam, KXDR Koreya, Eron va boshqalar. Yana bir qancha davlatlar ham pilla va ipak xom ashyosi ishlab chiqarish bilan arziyas miqdorda shug'ullanadi; Keniya, Botsvana, Nigeriya, Zambiya, Zimbabve, Bangladesh, Kolumbiya, Misr, Yaponiya, Nepal, Bolgariya, Turkiya, Uganda, Malayziya, Ruminiya, Boliviya va boshqalar.

Dunyoning asosiy ipak iste'molchilari; AQSh, Italiya, Yaponiya, Hindiston, Frantsiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Germaniya, BAA, Koreya, Vetnam va boshqalar.

Ipak jahon to'qimachilik bozorida kichik ulushga ega bo'lsa ham - 0,2% dan kam (aniq global qiymatni baholash qiyin, chunki ko'pgina import qiluvchi mamlakatlarda tayyor ipak mahsulotlari to'g'risida ishonchli ma'lumotlar yo'q) - uning ishlab chiqarish bazasi 60 ta mamlakatga tarqalgan. dunyoda. Asosiy ishlab chiqaruvchilar Osiyoda (tut yetishtirishning 90% va tut bo'lmagan ipakning deyarli 100%) bo'lsa, keyingi paytlarda Braziliya, Bolgariya, Misr va Madagaskarda ham ipakchilik tarmoqlari tashkil etilgan. Pilachilik ko'p mehnat talab qiladi. Xitoyda ipakchilik sohasida 1 millionga yaqin ishchi mehnat qiladi. Ipak sanoati Hindistonda 7,9 million kishini, Tailandda esa 20 ming to'quvchi oilani ish bilan ta'minlaydi. Xitoy dunyodagi yagona yirik ishlab chiqaruvchi va jahon bozorlariga ipak yetkazib beruvchi yetakchi hisoblanadi. Hindiston dunyodagi ikkinchi yirik ishlab chiqaruvchi hisoblanadi. Ipakchilik qishloq aholisini ish bilan ta'minlashga, katta shaharlarga migratsiyaning oldini olishga va haq to'lanadigan ish bilan ta'minlashga yordam beradi; to'qimachilik sanoatini xom ashyo bilan ta'minlash bilan birga kichik sarmoyalarni talab qiladi.

1.3.1-jadval

Jahon ipak ishlab chiqarish (metrik tonnada)¹

№	Mamlakatlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1	Bangladesh	44	44	41	41	41	41	41	35
2	Braziliya	600	650	600	650	469	377	373	375
3	Balgariya	8	9	10	10	10	10	9	10
4	Xitoy	1,70,000	1,58,400	1,42,000	1,20,000	68,6	53,359	46,7	50
5	Kolumbiya	1	-	-	-	1	1	1	1
6	Misr	1	1	1	1	2	2	2	1
7	Hindiston	28,523	30,348	31,906	35,468	35,82	33,77	34,903	36,582
8	Indoneziya	8	4	3	3	3	3	3	3

¹ <https://inserco.org/en/?q=statistics> muallif tomonidan tarjima qilindi

9	Eron	120	125	120	110	227	270	272	275
10	Yaponiya	30	32	20	20	16	16	10	10
11	Madagaskar	5	6	7	7	8	8	8	8
12	Shimoliy Koreya	350	365	365	350	370	370	370	370
13	Ruminiya	-	-	-	-	1	1	1	1
14	Filippin	1	2	2	2	2	2	2	1
15	Janubiy Koreya	1	1	1	1	1	1	1	1
16	Suriya	0	0	0	0	1	1	1	1
17	Tailand	698	712	680	680	700	520	503	435
18	Tunis	3	2	2	2	2	2	2	1
19	Turkiya	30	32	30	30	5	5	5	5
20	Uganda	-	-	-	-	3	3	3	3
21	O'zbekiston	1,200	1,256	1,200	1,800	2,037	2,037	2,037	2,037
22	Vetnam	450	523	520	680	795	969	1,067	1,067
Jami:		2,02,073	1,92,512	1,77,507	1,59,855	1,09,111	91,765	86,311	91,221

Fransiya mamalakatining tadbirkorlari har yili, bardavom ravishda 7000 tonna toza, quruq ipak sotib olishadi. Import qilinayotgan har bir kilogram ipak uchun bozor o'zgarishiga qarab 50-70 dollar to'lashadi. Tut novdasini bargi uchun kesib olmasdan, ipak qurtini boqmasdan, pilladan ipakni ajratib olmasdan tayyor ipakni ko'p miqdorda sotib olib, ish o'rinlari barpo qilishadi. Chuqur qayta ishlashni yo'lga qo'yishadi. Ipakdan ayollar kiyimlari, kostyumlar, sharf, galstuk, shlyapa kabi boy kishilar foydalanadigan tovarlar ishlab chiqarib, dunyo mamlakatlariga eksport qilishadi. Ipakdan tayyorlanadigan boshqa mahsulotlar to'g'risida ma'lumotlarni oshkor qilishmaydi. Iqtisodiyot – xo'jalik yuritish san'atining sirlarini ovoza qilishmaydi. Ishlab chiqarish siri, sirligicha qoladi. Ular, harbiy-sport parashyutlari ishlab chiqarishar. Balki, jarrohlik iplari yigirishar, bu o'zlarigagina ma'lum.

Bir kilogramini 70 dollardan import qilingan ipakni tayyor mahsulotga aylantirib, eksport qilingunicha o'n barobar qiymat qo'shib, 700 dollardan sotishadi. Ipakdan boshqa, og'ir, qattiq, chang narsalarni ushlamasdan ham, bir kilogram ipakdan 650-700 dollar daromad olishadi.

Fransuz ish bilarmonlar ipakni asosan Xitoy va Hindistonlik firmalardan, uzoq muddatli shartnomalar asosida sotib oladilar. Ipak importi kamaysa, dastgohlar va ishchilar bekor qolishlari mumkin. Shuning uchun uzoq muddatli, mustahkam shartnomalar tuzib, Hukumatlar aro kelishuvlar bilan tasdiqlatib olishadi.

Hukumatlar bu shartnomalarning amalga oshirilishidan nima sababdan manfaatdor bo'lishlarini bilish uchun qo'shilgan qiymat, buyumlashgan iste'mol ustiga xo'jalik yurituvchi qo'shadigan qiymatning tarkibini sanab o'tish o'rinli bo'ladi. Qo'shilgan qiymat:

1) Mehnat harajatlari, ya'ni ish haqi va unga hisoblab, pensiya jamg'armalariga o'tkaziladigan ijtimoiy soliq;

2) Amortizatsiya (bino, dasgohlar eskirishi)

3) soliqlar; yer solig'i, mol-mulk solig'i, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, aylanmadan soliq. 4) Foyda. Tannarx, ustiga qo'yilgan ustama. Foyda albatta ko'zda tutilishi

kerak. Chunki, ishlab chiqarishni kengaytirish, xodimlarni rag‘batlantirish, obodonlashtirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish, kadrlar tayyorlash va boshqa harajatlar uchun foyda asosiy manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

Xo‘jalik yurituvchi yuqorida sanab o‘tilgan soliqlar va majburiy to‘lovlar, ya‘ni litsenziya yig‘imi, ruxsatnoma to‘lovlaridan tashqari, olingan foyda hisobidan ham soliq – foyda solig‘i to‘laydi. Bundan ham tashqari xo‘jalik yurituvchilarning byudjet muassasalaridan va imtiyozli guruhlaridan tashqari barcha sub‘yektlari soliq to‘lovchi va soliq agenti sifatida qo‘shilgan qiymat solig‘ini hamda aksiz soliqlarini hisoblab davlat byudjeti daromadlariga undirib beradilar.

Tovar ishlab chiqarib ichki va tashqi bozorlarda sotib, aholi va ishlab chiqaruvchilarning turli ehtiyojlarini qondiruvchilar qancha ko‘p bo‘lsa shuncha yaxshi.

Ipak eksportchilari o‘z ehtiyojlaridan ortiq mahsulotni Frantsiya kabi mamalatlarga eksport qilinadi. Masalan, Xitoy Respublikasida bir yilda 8 marta ipak qurti boqib, pilla yetishtiriladi. Hindiston Respublikasida 10 marta pilla olinadi. Pilla va tutlardan olinadigan boshqa hom-ashyolarni chuqur qayta ishlash uchun ko‘p mablag‘ va ko‘p ishchi kuchi kerak bo‘ladi. Ishchi xizmatchilarga esa har oyda ish haqi to‘lab, pensiya jamg‘armasiga ijtimoiy soliq o‘tkazib berish kerak. Shu sabablarga ko‘ra, bu ikki yirik pillakor mamlakatlar, ipak hom-ashyosini sotib, pul aylanishidagi ichki uzilishlar o‘rnini qoplashda foydalanishadi. O‘sha 700 dollar o‘rniga, kerak vaqtida olingan 70 dollar juda katta madad bo‘lishi mumkin. Ipak (yoki pilla) bo‘lsa, lekin ishchi kuchi, elektr energiyasi, transportga yoqilg‘i uchun pul bo‘lmasa ish yurib keta olmaydi.

Qolaversa, bu hamkorlikning boshqa o‘ta nafli jihatlar ham bo‘lishi mumkin.

Turkiya Respublikasi noekin yerlaerdan samara bilan foydalanishda o‘rnak bo‘lsa, Frantsiya tut-pilla ipagini chuqur qayta ishlash va aholini yengil, ekologik toza ishlarda band qilishda o‘rnak bo‘la oladi.

Xitoy Respublikasi bilan Hindiston Respublikalari ipak qurtini ko‘p marta boqib, pilla yetishtirish (bivoltning) sohasida, hamda yer maydonlarini egallab turgan tut daraxtlaridan takror-takror foydalanib, yerdan samarali foydalanish va aholini ekologik toza yaxshi makon ichida ish bilan band qilishda o‘rnak bo‘la olishadi. Horij tajribasini o‘rganishda ham muhim talablar bor ekan tajribani o‘zini ko‘rib, kelaverish yaxshi samara bermas ekan. Tajribani chuqur o‘rganish bilan birga, uning ketma-ketligi, har bir bosqichdagi talablarni to‘g‘ri o‘rganish va to‘g‘ri qo‘llash juda muhim. Ayrim yaxshi tajribalarni to‘g‘ri qo‘llay olmaslik oqibatida bor narsadan ham ajrab qolish mumkinligini, olimlar ko‘p ta‘kidlashadi. Ularning talablari to‘g‘riligini amalda ko‘rish mumkin. Masalan, tut daraxtini 3 marta kesib olish, 5-avgustdan keyin navdalarni kesib foydalanish, tut bargini qo‘llar bilan terib olib, foydalanilgach, tutlarni sug‘orish va boshqa shunga o‘xshash talablarga rioya qilish kabilarni ko‘rsatish mumkin.

O‘zbekistonda istirohat hudularida o‘sib turgan manzarali daraxtlar, ko‘chalarni ikki chetidagi daraxtlar orasidagi bo‘sh joylarda ko‘plab past bo‘yli, foydalanish uchun qulay tutlar ekib foydalanish mumkin. Bir yilda 7 marta ipak qurti boqib, pilla olish mumkin. Bunda tut navdalari bargi uchun ko‘pi bilan 2 martagacha kesib foydalaniladi. Tutlar navdasini 5-avgustdan keyin kesib olish muammolar keltirib chiqaradi. Hatto, tutlar qurib qolishi ham mumkin. Tut barglari qo‘llar bilan terib olinib, foydalaniladi. Bu sermehnat ishga o‘xshaydi. Aslida, ko‘p miqdordagi barg katta daxa davrida, 7-8 kun terib olinadi. Tutlar past bo‘yli bo‘lgani uchun barg terib oluvchilar, yerga egilmasdan yoki baland tutlarga narvon yordamida chiqmasdan, osonlik bilan ishlash sharoit yaratiladi.

O‘zbekistonlik olim va mutaxassislar hozirgacha, pillachilik ozuqa bazasini rivojlantirish deganda, ekin yerlarida tut plantatsiyalari barpo qilinishini tasavvur qilishadi. Farg‘ona viloyatida 2018-2019 yillarda 12300 gektardan ortiq tut plantatsiyalari tashkil qilindi. Bir gektar ekin yerda eng ko‘pi bilan 1200 tup tutlarni parvarishlanadi. Chunki, 4x2 metr sxemasida

ko'chatlar ekilganda, nazariy jihatdan (10000 m²:8) 1250 tup tutlar sig'adi. Yerga kirish, chiqish, texkina burulib olish joyi, qurtxona o'rni kabi bo'sh qoladigan yerlar hisobiga tutlar soni 1200 tup atrofida bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T.: O'zbekiston, 2009- 40b.
2. «Tadbirkorlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. T.: O'zbekiston, 1991.
3. «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. T.: O'zbekiston, 1995
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-avgustdagi "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil qilish to'g'risida"gi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori PQ-4567-sonli 2020 yil 17-yanvar
8. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori PQ-4411-sonli 2019-yil 31-iyul
9. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori PQ-4047-sonli 2018-yil 4-dekabr;
10. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori PQ-3616, 2018-yil 20-mart, PQ-3910-sonli 2018-yil 24-avgust,
11. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori 2017-yil 11-avgust, PQ 3472-sonli 2018-yil 12-yanvar,
12. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori PQ-2856-sonli 2017 yil 29-mart.
13. Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston startegiyasi", Toshkent-2021 yil.0
14. "O'zbekistonda kichik tadbirkorlik 2017-2020". Toshkent -2021 yil.
15. Э.Б.Рубинов «Технология шелка (кокоматание): учебник для вузов – М:Легная 1 пищевая»
16. Abdullayev O.,Toshmatov Z.,O'zbekiston ekologiyasi bugun va ertaga. Toshkent. Fan 1992
17. Проветов Г.И. Международный Бизнес: задачи и решения: Учебное-практическое пособие. —М.: «Альфа-Пресс», 2009. — 160 с.
18. Цвиркун АД., Акинфиев В.К. Бизнес план. Анализ инвестиций. Методы и инструментальные средства,- 2-е изд., перераб. и доп,- М.: Ось-89, 2009. - 320 с.